

**DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ
HUQUQBUZARLIKLARINING TA'SIRINI TAHLIL QILISH**

Anvarjon Maxmudovich MAXMUDOV

mustaqil izlanuvchi
Farg'ona politexnika instiuti
Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning yo'l qo'ygan xatolarining davlat byudjeti daromadlarini shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Soliq huquqbuzarliklarning ta'sirini kamaytirish holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish, bunday mexanizmlardan foydalanishning tizimli boshqaruvi menejmentini yaratish tadqiqotimizning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Tayanch so'zlar: soliq tushumlari tahlili, soliq boshqaruvi, soliqqa oid huquqbuzarliklar, soliq to'lashdan bo'yin tov lash, soliq solinadigan baza, soliq munosabatlarini boshqarish.

**АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ НАЛОГОВЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ НА
ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА**

Анварджон Махмудович МАХМУДОВ

Независимый исследователь
Ферганский политехнический институт
Фергана, Узбекистан

Аннотация

Анализируется влияние на формирование доходов государственного бюджета ошибок, допущенных физическими и юридическими лицами. Основная суть нашего исследования – внедрение эффективных механизмов, направленных на предотвращение ситуаций, снижение последствий налоговых правонарушений, создание системного управления применением эффективных механизмов.

Ключевые слова: анализ налоговых доходов, налоговое администрирование, налоговые правонарушения, уклонение от уплаты налогов, налогооблагаемая база, управление налоговыми отношениями.

Islohotlarning bosqichma-bosqich o'tkazilishi demokratik va bozor islohotlari yo'lidan izchil va og'ishmay borish, kuchli ijtimoiy siyosat va aholining eng nochor qatlamlarini himoya qilish bilan birgalikda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning ijobiy natijalarini, ularni qo'llab-quvvatlanishi va ehtiroy etilishini oldindan belgilab beradi.

Soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarning rag'bathantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi subektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish

masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishda soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarini faol jalg qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi .

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish. Shuningdek, “Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo‘sishimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish kabi vazifalar belgilangan [1].

Byudjetga daromadlar tushumining oshishi-kamayishiga umuman quyidagi omillar ta’sir etadi:

- respublika iqtisodiyotining o‘sishi;
- so‘mning erkin ayirboshlash kursini joriy qilish;
- qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxlarining nisbatan yuqoriligi;
- soliq islohoti;
- soliq ma’muriyatichiligining yangi instrumentlarini joriy etish.

Soliq huquqbazarligin mahalliy byudjet doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tgan yili byudjetdan 1,2 trillion so‘mlik noqonuniy xarajat hamda 200 milliard so‘mlik kamomad va o‘g‘riliklarga yo‘l qo‘yilgani aniqlangan, aslida ishlamagan xodimlarga haq to‘langan, plastik karta orqali noqonuniy o‘zlashtirish, qurilish sohasidagi huquqbuzilishlarni hamda yer uchastkalarini belgilangan meyorlaridan ortiq holatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilganini kuzatishimiz mumkin. Bunda soliq huquqbazarliklariga qonundan tashqari iqtisodiy faoliyat doirasi sifatida qarash mumkin, ya’ni bitimlar noqonuniy amalga oshiriladi, huquqiy meyorlar va xo‘jalik hayot qoidalariga amal qilinmaydi.

Asosan qurilish sohasida uchrab turadigan munosabatlar shuni aniqlaydiki, uning qatnashchilari amalga oshirayotgan ishlarini iloji boricha yashiradilar. Bu shaxslar faoliyatning daromad miqdorini soliq xizmati va huquq tartibot

organlaridan, jamiyatdan sir tutadilar. Bunday holatlarning ko‘lamini aniqlash boshqaruv tizimida ancha qiyinchilik tug‘diradi.

Prezidentimizni 2023-yil 18-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida hozirgi kunda mamlakatda xufiyona iqtisodiyotning ulushi 40 foiz atrofida ekani ma’lum qilingan edi. Ko‘rilayotgan choralarga qaramay, qurilish sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi yuqoriligidicha qolayotganini ta’kidladi. *Xufiyona iqtisodiyotning 6-7 foizi qurilishda. Bunda yashirin iqtisodiyotning 6-7 foiz ulushi alkogol mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.* Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yashirin iqtisodiyotning ulushi 40 foiz bo‘lib, taxminan 32 mlrd dollarga baholanmoqda.

Bu qiymat asosan, ko‘chmas mulk va transport vositalarining ikkilamchi bozorida, ulgurji va chakana savdo, xizmat ko‘rsatish, tamaki mahsulotlari kontrabandasi, noqonuniy tovarlar aylanmasi, qishloq xo‘jaligi va boshqalar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda [9].

2023-yilning 16-yanvar kuni Prezident ishtirokidagi bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda quyidagi sohalarda soliqdan qochish va soliq huqbuzarliklarini keltirib chiqaruvchi manbalar ochiqlantirildi.

Davlat rahbari e’lon qilgan ma’lumotlarga ko‘ra, xizmatlarda 140 trln so‘m, qurilishda 50 trln so‘m, sanoatda 40 trln so‘m mahsulot «soyada» qolmoqda. Agar ular joyida bo‘lsa, bu orqali yalpi ichki mahsulotga 135 trln so‘m, davlat byudjetiga esa 30 trillion so‘m miqdorida tushum qilish mumkin.

27 mingta qurilish korxonasining 41 foizi yoki 10 947 mingtasi hisobotida faqat bir nafar ishchisini rasmiy xodim sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, shundan 2249 tasi Toshkent shahrida, 1087 tasi Toshkent viloyatida, 837 tasi Samarqand shahrida va hokazo. Ushbu korxonalar tomonidan o‘tgan yil davomida 4 trln so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan.

Bugungi kunda 5 mln ga yaqin aholi norasmiy sektorda faoliyat yuritmoqda, ularga oylik berayotgan tadbirkorlar soliq to‘lamaydi [10].

Xorijiy mamlakatlarda soliqqa oid huquqbuzarliklar natijasidagi byudjet yo‘qotishlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

**Soliqqa oid huquqbazarliklar va jinoyatlar natijasida soliq tushumlarining yo‘qolishi
bo‘yicha reytingi (2022 yil) dollarda [11]**

Mamlakatlar	Yillik jami yo‘qotishlar	Har yili boshqa mamlakatlarga etkazilgan soliq zarari
1 AQSh	177,270,091,562	20,161,882,812
2 Braziliya	7,926,624,840	2,010,211,140
3 Italiya	4,771,254,942	4 533 744 141
4 Rossiya	1,315,252,810	0
5 Germaniya	26 046 215 032	0
6 Frantsiya	33 024 647 225	4 215 977 539
7 Yaponiya	8 319 468 982	0
8 Xitoy	11,435,210,938	0
9 Buyuk Britaniya	44,684,200,572	61,652,363,344
10 Ispaniya	6 424 654 175	1 402 078 857
11.Kanada	3,650,585,152	11,575,162,096
11.Azerbayjan	22 511 023	0
12.Kazaxstan	183,338,811	0
13.Uzbekistan	12 005 689	111 617 899
14.Tajikistan	754 316	272 239
15.Kirgiziston	5,533,579	0

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan yuridik shaxslar faoliyatini tahlil qilganimizda soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligini buzish holatlari ham uchrab turibdi [12].

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining bergen ma’lumotiga ko‘ra bugungi kunda Respublikasizda jami 571890 ta yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shulardan 63162 nafari shu yilning yanvar oyidan avgust oyigacha bo‘lgan davrida tashkil etilganlari hisoblanadi, bu umumiylis songa nisbatan 11 foizni tashkil etadi. Sohalar kesimida tahlil qiladiga bo‘lsak, eng ko‘p yuridik shaxs sifatida faoliyatini ochgan soha savdo sohasiga 23354 (150427 ta) sanoat yo‘nalishiga 10240(68894) ta yuridik shaxs faoliyatini boshlaganini bildiradi. Eng oz ochilgan sohalar bu tashish va saqlash hamda axborot aloqa yo‘nalishlariga to‘g‘ri keladi.

Viloyatlar kesimida eng ko‘p yuridik shaxs sifatida faoliyatini boshlagan korxonalar Toshkent shahri 11484 (98681), Farg‘ona viloyati 5819 (51896), Samarqand viloyati 5916 (54914) hissalariga to‘g‘ri keladi.

Yakka tartibdagagi tadbirkor sifatida faoliyatini boshlaganlar 2023-yil 1-sentabr holatiga 247505 ta, yil boshidan esa 66448 tani, ya’ni 26.8 foizni tashkil etadi va shu yilni o‘zida o‘sish bo‘lganidan dalolat beradi. Sohalar kesimini

oladigan bo‘lsak, eng ko‘p tadbirkorlikni chakana savdo sohasida faoliyat boshlaganlar tashkil etmoqda, 29190 (120444) nafar. Hunarmandchilik sohasi 5009 (24885), Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi 7632 (23354), boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 24617 (78822) nafar tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Soliq rejimlari bo‘yicha shularning 82.2 foizi, ya’ni 205883 nafari qat’iy belgilangan summada daromad solig‘i to‘lovchi, 15.9 foizi, ya’ni 39469 nafari aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi, 0.9 foizi, ya’ni 2159 nafari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilardir. Eng ko‘p ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar bu Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand viloyati va Farg‘ona viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi [12].

Davlat organlarining soliq huquqbuzarliklari bilan kurashga qaratilgan ishlari jismoniy va yuridik shaxslarning yo‘l qo‘ygan xatolari uchun ta’qib qilish bilan chegaralanib qolib, uning asl sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilmagan. Buning natijasida yangi-yangi xatoliklar, soliq to‘lashdan qochish, soliq bazasida daromadlarni to‘liq ko‘rsatmaslik holatlari vujudga kelmoqdaki, buning oldini olish yoki bartaraf etish uchun ilmiy jihatdan yondashish talab etiladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil – taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risidagi boshqa axborotni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda, soliq to‘lovchining ishtirokisiz o‘tkaziladigan avtomatlashtirilgan tahlildir.

Soliq organlari kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o‘tkazishi mumkin. (Soliq kodeksining 138-moddasi)

Agar tekshiruvdan oldingi tahlil chog‘ida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risida xabarnoma yuboriladi.

Ushbu avtomatlashtirilgan tizimning joriy qilinishi soliq to‘lovchilarga bir qator afzalliklar yaratadi. Jumladan:

soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda hisoblanishi hamda to‘lanishini ta’minlashda ko‘maklashadi;

ularning faoliyatida yuzaga kelgan soliqqa oid huquqbazarliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beradi;

ularga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy jarimalar, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining oldi olinishini ta’minlashga xizmat qiladi;

ularning faoliyatiga asossiz aralashish va korrupsiya holatlarini cheklash hamda ma’muriy bosimlarni kamaytirishga imkoniyat beradi.

2022-yilda soliq to‘lovchilar hisobotlarida 90,7 trln so‘mdan ortiq tafovutlar aniqlandi [12]

Soliq to‘lovchilarda 2022-yilda o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 90,7 trln so‘mlik tafovutlar aniqlandi.

Shundan, 76,7 trln so‘mlik tafovutlar yoki jami aniqlangan tafovutlarning 84,5 foizi bartaraf etilgan, 4,1 trln so‘m qo‘sishimcha soliqlar hisoblangan, 72,6 trln so‘m tafovut bo‘yicha hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tuzatilgan.

2023-yil yanvar-avgust oylari davomida o‘tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 89 136 ta korxona tomonidan ko‘paytirishga qayta hisobotlar taqdim etilgan va 5,9 trln so‘m soliqlar hisoblangan.

Eng katta tafovut aniqlangan sohalar:

ishlab chiqarish – 3 trln so‘m (51,2%);

umumiyl ovqatlanish va savdo – 861,1 mld so‘m (14,5%);

qurilish – 849,2 mld so‘m (14,3%);

transport – 207,9 mld so‘m (3,5%);

qishloq xo‘jaligi – 172,1 mld so‘m (2,9%).

Soliq huquqbazarliklarining oldini olishda soliq to‘lovchilardan kelib tushayotgan murojaatlarni alohida takidlash lozim, 2023-yil 1-sentabr holatiga e’tiborimizni qaratsak, 84786 marotaba murojaat bo‘lib, shu murojaatlarning 99,5 foizida soliq huquqbazarliklari o‘z tasdig‘ini topgan. Asosan qaysi sohalarda bu kabi qoidabuzilishlar aniqlangan:

xaridorlarga savdo chekini bermaslik–93,4 foizni tashkil qiladi;

to‘lovlarni plastik karta orqali qabul qilmaslik holatlari – 3.9 foiz; plastik karta uchun xarid summasini oshirish holati – 0.2 foiz; boshqa holatlarda soliq huquqbazarliklarini sodir etish – 2.4 foizni tashkil etmoqda.

Bu ko‘rsatkichlarni viloyatlar kesimida tahlil qilsak, kelib tushgan murojaatlarni va shu asosda to‘langan mukofotlarni asosan Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlarida amalga oshigani haqiqat bo‘lib qolmoqda.

Farg‘ona viloyati misolida soliq huquqbazarliklarini sodir etilishi va uni o‘z vaqtida soliq organlari tomonidan aniqlashi hamda bu ishlar yuzasidan ma’muriy choralar korilishini quyidagi diagrammadan ham bilishimiz mumkin.


2-shakl kitobidan ro‘yxatdan o‘tkazish, tekshirishlar natijasida soliq huquqbazarligi mavjudligidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra 2021-yilda 16401 ta huquqbazarlik bilan bog‘liq ish tekshirishda aniqlangan. Shulardan 14769 tasi yuridik, 1632 ta ish jismoniy shaxslar xissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bunda 2020-yilga nisbatan 2021-yilda 55.7 foiz koproq soliq qonunchiligini buzish holatlari aniqlangan. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatgich 57.3 foizga pasayganligini ko‘rish mumkin.


1-rasm




2-rasm



3-rasm



4-rasm



Soliq to‘lovchilarni soliqlarga qay tarzda amal qilishlari tahliliga qaraydigan bo‘lsak, 2022-yili jami 866 marotaba soliq auditii o‘tkazilgan bo‘lib, bu soliq to‘lovchilarga nisbatan 0.15 foizni tashkil qiladi.

2023-yilning 8 oyida esa atiga 679 ta subektda tekshirish o‘tkazilgan bo‘lib, bu ko‘satkich 0,1 foizni tashkil etadi. Shu ko‘rsatkich past bo‘lishiga qaramay 223 nafar subektda 1,2 trl so‘m soliq summasini yashirish holatlari aniqlangan. Bular:

– 138 ta yuridik shaxsda 697,2 mld.so‘mlik realizatsiya qilingan tovarlar summasini ko‘rsatmaslik;

– 63 ta yuridik shaxs 489,4 mld so‘mlik tovarlarni omborlarda saqlayotgani yoki realizatsiya mavjud emasligi;

– 22 ta yuridik shaxsda 23.9 mld.so‘mlik kirim qilinmagan tovarlarni saqlaganlik holatlari aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar asosan ishlab chiqarish, qurilish, savdo va boshqa sohalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 0,1 foizli tekshirish o‘tkazilganda 1,2 trl so‘mlik soliq qoidabuzarligi aniqlangan bo‘lsa, tekshirish soni ortib borishi bilan soliqni yashirish, turli yo‘llar bilan soliqdan qochish holatlari yaqqol ko‘zgan tashlanib qolishi mumkin.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda soliq huquqbazarliklari bilan kurash muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1.“Insofli soliq to‘lovchi” tizimini shakllantirish hamda soliq to‘lovchilarga shu g‘oyani tushuntirish; to‘lanayotgan soliqlarni maqsadli ishlatilishini ko‘rsatib, inson ongiga soliqdan qochishni salbiy oqibatlarini singdirish.

2.Har tomonlama naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish; to‘laqonli plastik kartalar tizimiga o‘tish, naqd pulni erkin muomalada aylanishiga cheklovlari qo‘yish.

3.Xo‘jalik subektlari faoliyati yuzasidan jamoatchilik nazaratini o‘rnatish.

4.Yirik miqdordagi pul mablag‘lari davlat va jamoatchilik nazaratiga olish.

5.Soliq to‘lovchilar moliya-xo‘jalik faoliyatini ikki yilda bir marotaba profilaktik soliq auditii tekshiruvidan o‘tkazib turish va natijasi bo‘yicha jazo

choralarini qo'llamaslik. Afsuski, soliq to'lovchilar orasida qonunni bilib buzuvchilar ham bor.

5. Professional ta'lif va oliy o'quv yurtlarida soliq huquqbuzarliklari fanini o'qitishni tashkil etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30-oktyabr PF-6098-son Farmoni. Lex.uz
2. Ёрматов И.Т. Научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные фактор. – Тошкент, 2019.
3. Ismanov I., Toshmamatov N., Buzrukxonov S. Moliyaviy hisob va hisobot: darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2019.
4. Носиров И.А. Влияние научно-технического прогресса в эффективном использовании ресурсов. ЛИ Республики Узбекистан. //Вестник Республики Каракалпакистан, 2016.
5. Носиров И. А. Совершенствование учета и анализа затрат хлопкоперерабатывающих предприятий (на примере кооперативных хозяйств Ферганской долины): монография. – Ташкент, 1998.
6. Toshmamatov N., Kamolov X., Nosirov I., Toshmamatov S. Audit: o'quv qo'llanma. – Andijon, 2018. – 300 b.
7. Yangiboev N.A., Qudbiev D.Q. va boshq. Soliq xizmati organlarida buxgalteriya xisobi. – Toshkent, 2023.
8. Nosirov I.A.The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science., 2017g.
9. <https://kun.uz/news>
10. <https://газета.uz> Prezident Shavkat Mirziyoev ishtirokida 20234-yil 16-yanvar kuni bo'lib o'tgan yig'ilishdan
11. <https://www.taxjustice.net>
12. t.me/fiskaltahlil